

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYAT



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYAT

DARSLIK

**70110201 - *Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi*
(maktabgacha ta'lim)**

TOSHKENT-2023

UO'K 373;741/744
KBK 74.2;85.14
X-27

T.L.Xurvaliyeva / Maktabgacha ta'limda innovatsion faoliyat / Darslik
- Chirchiq, "City of book", 2023 - 136 b.

Mas'ul muharir:

X.I.Ibragimov-Pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

SH. K. Xojamberdiyeva - Namangan davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc).

L.Q.Narimbayeva - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Mazkur darslikda "Maktabgacha ta'limda innovatsion faoliyat" fanining nazariy masalalari, "Innovatsiya" tushunchasi, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, innovatsiyalarni tashkil etish bosqichlari, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" g'iqonunda innovatsiyaga oid vazifalar, maktabgachata'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalartushunchasi, maktabgacha ta'limda loyihalashtirish, multimedia vositalari va ulardan foydalanish, shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, bolalarga tanlash erkinligi, shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoli o'qitish, vebinar, loyihalashtirish texnologiyalari, maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalarining nazariy jihatdan asoslangan.

Darslik maktabgacha ta'lim yo'nalishi talablari, magistrlar va maktabgacha ta'lim tashkiloti metodist va tarbiyachilarga, ilmiy izlanuvchilarga mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan chop etishga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9910-780-01-1

© T.L.Xurvaliyeva, 2023

© «City of book», 2023

O'ZBEKISTON RES. TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

2

KIRISH

Yangi O'zbekiston qurishning asosini bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot tashkil etilishini nazarda tutgan holda, barcha sohalarini rivojlantirishda innovatsion faoliyatga urg'u berish muhim. Innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar va boshqa manfaatdor tashkilotlar takliflari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. Mirziyoev tomonidan 2020 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" qonuni tasdiqlangan. Ushbu qonunda innovatsion faoliyat sub'ektlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashadi, innovatsion faoliyat natijalarini joriy etishga doir samarali mexanizmlarni shakllantirish, innovatsion faoliyat sub'ektlari uchun kadrlarni tayyorlash vazifasi belgilangan. Qonunga asosan, innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi, mahsulotga oid innovatsiyalar, jarayonga oid innovatsiyalar, marketingga oid innovatsiyalar, tashkiliy innovatsiyalar. **Innovatsiya** fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion faoliyat va innovatsion jarayon, innovatsiyalarni tashkil etish bosqichlari muayyandaktik talablar asosida amalga oshiriladi.

Keltirilgan vazifalar asosida mazkur darslikni yaratildi. Bunda innovatsion texnologiyalarning rivojlanish tarixi, olimlarning g'oyalari, maktabgachata'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish yuzasidan ma'lumotlar bayon qilingan. SHuningdek darslikda innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalartushunchasi, maktabgacha ta'limda loyihalashtirish, multimedia vositalari va ulardan foydalanish, shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, bolalarga

¹ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. Mirziyoev "O'zbekiston Respublikasi "Innovatsion faoliyat to'g'risida" qonun. UPR-630-son. 2020 yil 24 iul.

tanlash erkinligi,shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoli o'qitish, vebinar, loyihalashtirish texnologiyalarhaqidafikr-mulohazalar bildirilgan. SHu nuqtainazardan mazkur darslikda 70110201 -

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasimaktabgacha ta'lim yo'nalishidagi magistr'larga "Maktabgacha ta'limda innovatsion faoliyat" o'quv modulida o'qitilishi mo'ljallangan mavzular qamrab olingan. SHu bilan bir kator vazifalarni amalga oshirish taqozo etiladi. Xususan, Davlat ta'lim standartlarining asosiy talabi hisoblangan ijodiy tafakkur yurituvchi barkamol shaxsni shakllantirish, maktabgacha ta'lim yunalishi magistr'larni innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari, interfaol metodlar, maktabgacha ta'limda loyihalashtirish, multimedia vositalari va ulardan foydalanish, e shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, bolalarga tanlash erkinligi, shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muammoli o'qitish, vebinar, loyihalashtirish texnologiyalari, maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalarining tatbiq etish malakalarini shakllantirish hamda amaliyotda uchraydigan ta'limiy muammolarni bartaraf etishga oid tajribalarni xosil qilish uchun zamin yaratish kabilar. YUkoridagi vazifalarni hal etish professor-o'qituvchilardan chuqur bilim, pedagogik maxorat va bilimdonlik talab etiladi. SHu nuktai nazardan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilariga metodik manba sifatida mazkur darslik takdim etildi.

I. BOB.

PEDAGOGIK INNOVATSIYA OBYEKT, MAVZU VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Pedagogik innovatsiyalarning kelib chiqish tarixi. Pedagogik innovatsiyalarning dastlabki tushunchalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etilgan. "Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalarni asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"².

Innovatsiya atamasining mohiyatini tahlil qilsak. "Innovatsiya" tushunchasi dastlab XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lib, lotincha "inglizcha" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak - "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri-pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tatbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik

² Мурожаатномаи Ҳ.М. Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. – Т.2018, 19-20-бетлар.

innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.



Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

"Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilik fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi ilm-fan - bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish. Innovatsiyalar - bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir. Ixtiro - bu yangi konsepsiyani yaratish demak. Innovatsiya - bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga ta'rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo'la boshladi. E.A.Utkinning yondashuviga ko'ra innovatsiya deganda "ishlab chiqarishga joriy etilgan ob'ekt tushuniladi"³Stepanovaning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi⁴.

L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni "korxona faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi"⁵ deb ta'riflaydi."Innovatsiya" tushunchasining yuqoridagi ta'riflari o'zgarishlarni mikroiqtisodiy xususiyatini aks ettiradi va bu yerda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko'rib chiqilgan. B.Santoning fikriga ko'ra, innovatsiya - bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.

L.A.Baev va E.V.Shugurov fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud ob'ektga ko'ra yondashuv; jarayonli yondashuv; ob'ekt-nafililik yondashuvi; jarayon-nafililik yondashuvi; jarayonli-moliyaviy yondashuv⁶

Obyektga ko'ra yondashuvga asosan, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijasi - yangi texnika va texnologiya - innovatsiyalar bo'lib xizmat qiladi. Ob'ekt mezoni quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi: bazis innovatsiyalar - yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo'lgan innovatsiyalar; takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya'ni ilmiy-texnologik siklning barqaror rivojlanishi bosqichida ko'p uchraydigan kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar; soxta innovatsiyalar (ratsionalizatorlik innovatsiyalar) texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, odatda texnik taraqqiyot sekinlashishiga olib keladilar, chunki ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. **Ob'ekt-nafililik yondashuviga ko'ra**, innovatsiya yangi ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish asosida ishlab chiqarilgan yangi

³ Уткин Э.А. Управление компаниями. Москва, 1997.-304 с.

⁴ Степанова И.П. Инновационный менеджмент. Учебник. 2014.-277 с

⁵ Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 1989.-167 с.

⁶ Баев Л.А. Системный подход к выявлению инноваций. 2008- 34 с.